ISSN: 2181-4341, IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 9.145, SJIF – 5,431

Chorshanbiyeva Shabnam Isroilovna

Namangan davlat unversteti Yuridik fakulteti talabasi

Telefon raqami: +998774235797

YANGILANAYOTGAN O‘ZBEKISTONDA UYUSHMAGAN YOSHLAR ORASIDAGI JINOYATLARNI OLIDINI OLISH

Annotatsiya: Mazkur maqolada Yangilanayotgan O‘zbekistonda uyushmagan yoshlar o‘rtasida sodir etilayotgan jinoyatlarning sabablari, ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy omillari hamda ularning oldini olishning huquqiy mexanizmlari tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida yoshlar bandligini ta’minlash, ularni ta’lim va kasb-hunarga jalb etish, bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish hamda profilaktik ishlar samaradorligini oshirish masalalariga alohida e’tibor qaratiladi. Shuningdek, davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlarining o‘zaro hamkorligi, huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyati hamda normativ-huquqiy hujjatlarning amaliy ahamiyati yoritib beriladi. Maqolada jinoyatchilikning oldini olishda ijtimoiy profilaktika, ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibot va individual yondashuv muhim omil ekanligi asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari uyushmagan yoshlar o‘rtasida jinoyatchilikni kamaytirish, ularning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish hamda jamiyatda barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so’zlar:davlat siyosati, bezorilik, jinoyat, huquqiy ong va huquqiy madaniyat, voyaga yetmaganlar, profilaktik chora, normativ-huquqiy hujjat.

Abstract: This article analyzes the causes of crimes committed among unorganized youth in the Renewed Uzbekistan, as well as the socio-economic and spiritual factors contributing to them and the legal mechanisms for their prevention. The research particularly focuses on ensuring youth employment, involving them in education and vocational training, organizing their leisure time meaningfully, and increasing the effectiveness of preventive measures. Furthermore, the interaction between state authorities and civil society institutions, the activities of law enforcement agencies, and the practical significance of regulatory legal acts are examined. The article substantiates that social prevention, spiritual and educational advocacy, and an individual approach are important factors in preventing crime.

The research findings serve to develop proposals and recommendations aimed at reducing crime among unorganized youth, improving their legal awareness and culture, and ensuring stability in society.

Key word; state policy, hooliganism, crime, legal culture and legal awareness, minors, preventive measure, normative legal.

Аннотация: В данной статье анализируются причины преступлений, совершаемых среди неорганизованной молодежи в обновляющемся Узбекистане, их социально-экономические и духовные факторы, а также правовые механизмы их предотвращения. В ходе исследования особое внимание уделяется обеспечению занятости молодежи, привлечению их к обучению и профессиональной подготовке, содержательной организации свободного времени, а также повышению эффективности профилактических мероприятий. Кроме того, рассматривается взаимодействие государственных органов и институтов гражданского общества, деятельность правоохранительных органов и

практическая значимость нормативно-правовых актов. В статье обосновывается, что социальная профилактика, духовно-просветительская работа и индивидуальный подход являются важными факторами предупреждения преступности. Результаты исследования направлены на снижение уровня преступности среди неорганизованной молодежи, повышение их правового сознания и культуры, а также обеспечение стабильности в обществе через разработку соответствующих рекомендаций и предложений.

Ключевые слова; государственная политика, хулиганство, преступление, правосознание и правовая культура, несовершеннолетние, профилактическая мера.

Kirish: Yangilanayotgan O‘zbekistonda yoshlar masalasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosatini izchil amalga oshirish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish, zamonaviy bilim va kasb-hunar egallashi uchun shart-sharoitlar yaratish borasida keng ko‘lamli islohotlar olib borilmoqda. Jumladan, yoshlar bandligini ta’minlash, ularni kasb-hunar va tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish, ijtimoiy muammolarini manzilli hal etish hamda huquqbuzarliklarning bartaraf etish, shunga qaramay, amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki, uyushmagan yoshlar orasida sodir etilayotgan jinoyatlar jamiyat barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillardan biri bo‘lib qolmoqda. Mazkur holat jinoyatchilikning ijtimoiy ildizlarini chuqur tahlil qilish, mavjud profilaktik mexanizmlarning samaradorligini baholash hamda ularni takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi. Mazkur holat jinoyatchilikning ijtimoiy ildizlarini chuqur tahlil qilish, mavjud profilaktik mexanizmlarning samaradorligini baholash hamda ularni takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi. Shu munosabat bilan, mazkur maqolaning maqsadi Yangilanayotgan O‘zbekistonda uyushmagan yoshlar orasida jinoyatchilikning kelib chiqish sabablari va shart-sharoitlarini tahlil qilish, shuningdek, uning oldini olishga qaratilgan tashkiliy-huquqiy choralarni ilmiy asosda yoritishdan iboratdir. Uyushmagan yoshlar o‘rtasida sodir etilayotgan jinoyatlar tarkibi va dinamikasini tahlil qilish jinoyatchilikning asosiy kriminogen omillarini aniqlash imkonini beradi. Mazkur holat profilaktika tizimining samaradorligini baholash va uni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan xulosalar chiqarishni talab etadi. Masalaning dolzarbligini asoslash maqsadida statistik ko‘rsatkichlarga murojaat qilamiz

Statistika ma’lumotlariga ko‘ra yurtimizda 9 685 564 nafar 14-30 yoshli yoshlar mavjud. Voyaga yetmaganlar tomonidan bir qancha jinoyatlar sodir etilishi mumkin, masalan birgina 2022-yilning o‘zida 13-17 yoshli jami 3112 nafar voyaga yetmagan shaxslar jinoyat sodir etishgan.Bu degani bir kunda o‘rtacha 7 ta bezorilik jinoyatlari rasmiy qayd etiladi.Bugungi kunda yoshlar siyosatiga hukumat tomonidan katta e’tibor qaratilishi, ularning bo‘sh vaqtini samarali o‘tkazishlarini tashkil qilish uchun kitobxonlikni targ‘ib qiluvchi sovrinli loyihalar, mashhur insonlar ishtirokida turli ko‘ngil ochar tadbirlar o‘tkazilib kelinishidan ko‘zlanayotgan asosiy maqsadlardan biri ham yoshlar, xususan voyaga yetmaganlarning jinoyat yo‘liga kirib qolishini oldini olish, ularni jamiyatda sog‘lom muhitda tarbiyalash va yurtimiz ravnaqi uchun xissa qo‘shishga har taraflama tayyor intellektual rivojlangan shaxslarni yetishtirishdir. Bu faktlar yoshlar orasida jinoyatchilikning sabablarini aniqlash va profilaktik choralarga e’tibor qaratish imkonini beradi. Yoshlar orasida jinoyat sodir etilishining sabablari ko‘p omillarga bog‘liq bo‘lib, statistik tahlillar ham bu holatni tasdiqlaydi.

Masalan, 2024-yilda O‘zbekiston bo‘yicha jami 132 298 ta jinoyat ro‘yxatga olingan va ularning 59,4 foizi aynan 14–30 yoshli shaxslar tomonidan sodir etilganligi ma’lum qilindi, bu yoshlar qatlami jinoyatchilikda yuqori ulushga ega ekanini ko‘rsatadi. Shuningdek, ilmiy tahlillar va ekspert fikrlariga ko‘ra, yoshlar jinoyatchiligining asosiy sabablaridan biri ijtimoiy-ma’naviy muhitning ta’siri, do‘stlar yoki ommaviy axborot vositalari ta’siri, bo‘sh vaqtning mazmunli tashkil etilmasligi va huquqiy ongning pastligi bilan bog‘liq. Bu holat yoshlarni jinoyatga jalb etuvchi salbiy omillarni kuchaytiradi. Bundan tashqari, iqtisodiy omillar ham muhim rol

o‘ynaydi: ishsizlik yoki bandlik bilan qamrab olinmaslik yoshlarning moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelishiga olib keladi va bu ularni jinoyat yo‘liga boshlaydi. Masalan, 2023-yilda taxminan 3 599 ta yoshlar va voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar statistik tahlillarda qayd etilgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich oldingi yillarga nisbatan o‘sish tendensiyasini aks ettiradi. Shu sababli yoshlar jinoyatchiligi faqat individual salbiy xatti-harakat emas, balki ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy muammolar majmuasi hisoblanadi, va bu holatni bartaraf etish uchun kompleks profilaktik choralar, ma’naviy-ma’rifiy ishlar va huquqiy bilimni oshirishdir.Shu yo’l bilan jinoyatchilikning oldini olish imkoniyati oshadi.

Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining o‘ziga xos tomonlari haqida so‘z yuritishdan avval jinoyat o‘zi nimaligi haqida qisqacha ma’lumot berish orqali kirish yasash o‘rinli hisoblanadi. Jinoyat deganda, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 14-moddasida belgilanganidek,” Kodeks qo‘riqlaydigan obyektlarga, masalan, inson hayoti, sog‘lig’i, sha’ni, mulki, erkinligi va boshqalarga zarar yetkazadigan yoki zarar yetkazish xavfini vujudga keltiradigan aybli ijtimoiy xavfli qilmish, jazo qo‘llash tahdidi bilan jinoyat deb topiladi” - deb ko’rsatilgan. Ya’ni qilmishning ijtimoiy xavfliligi, aybning mavjudligi hamda uning jazoga sazovorligi jinoyatning ajralmas belgilari hisoblanadi. Ma’lum bir qilmishni ijtimoiy xavfli deb belgilab, uni jinoyat deb atash har bir davlatdagi o‘ziga xos jarayon hisoblanadi. Bunda davlatlarning urf-odati, diniy tushunchalari, axloqi hisobga olinadi. Shunga ko‘ra ba’zi harakatlar ayrim davlatlarda jinoyat deb qaralsa ayrim davlatlarda normal hodisa deb qabul qilinishi mumkin.

Ta’kidlash joizki, qo‘yilgan barcha vazifalarning negizi bo‘lib, eng avvalo, inson huquqlari himoyasining kafolatlarini so‘zsiz ta’minlash, qonun hamda adolat ustuvorligini qaror toptirish hisoblanadi. Shu bois bizdan ushbu mas’uliyatli vazifalarni bajarish uchun o‘z vakolatlarimiz, bilimimiz, tajribamiz va bor imkoniyatlarimizni to‘liq safarbar etish, bunda asosiy e’tiborni huquqbuzarliklarni barvaqt aniqlash hamda oldini olishga qaratish va bu borada bir qancha vazifalarni amalga oshirish, huquqiy mexanizimni ham takomillashtirish talab etiladi. Shulardan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasining 2010-yil 29-sentabrda qabul qilingan “Voyaga yetmaganlar O‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida”gi, O‘zbekiston Respublikasining 2014-yil 14-maydagi “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi va O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentyabrdagi “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida” gi, 2016-yil 16-sentyabrdagi “Ichki ishlari organlari to‘g‘risida” gi Qonunlari va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-martdagi Q-2833-sonli “Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari,

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-martdagi “Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Q-2833-son qarori bilan tasdiqlangan. “Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish bo‘yicha respublika idoralararo komissiya to‘g‘risida”gi nizom, “Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish bo‘yicha respublika idoralararo komissiyasi tarkibi”, “Voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha idoralararo komissiyalar to‘g‘risida”gi nizom, kabilar qabul qilingan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev tomonidan ta’lim-tarbiya, huquqbuzarlikning oldini olish jarayonlariga katta e’tibor qaratilmoqda. Xususan, 2017-2021- yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning besh ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha “Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmon qabul qilinib, hayotga faol tadbiq etildi.Ushbu dasturning to‘rtinchi tarmog‘i “Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari”, deb nomlandi. Ushbu islohatlarning davomi sifatida 2022 - 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasining qabul qilinishi natijasida yoshlar va ayniqsa voyaga yetmagan yoshlar orasida jinoyatchilikning oldini olish ishlari alohida ilgari suriladi. Yuqorida keltirilgan raqamlar va qonuniy me’yorlar

birgalikda, jinoyatchilikni oldini olish mexanizmlarining amaliy samaradorligini baholashga zamin yaratadi. Ma'naviy-ma'rifiy muhit va oilaviy nazoratning sustlashuvi ayrim yoshlarning huquqiy me'yorlardan chekinishiga zamin yaratmoqda. Kriminologik kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, uyushmagan yoshlar o'rtasida asosan bezorilik, o'g'rilik, talonchilik, giyohvandlik vositalari bilan bog'liq jinoyatlar va jamoat tartibiga qarshi qaratilgan huquqbuzarliklar ko'proq uchraydi. Ushbu holat bir qator omillar bilan izohlanadi. Xususan, ishsizlik, daromad manbaining yo'qligi, oilaviy nazoratning sustligi, salbiy do'stlar ta'siri hamda huquqiy ongning yetarli darajada shakllanmaganligi yoshlarni jinoyat sodir etishga moyil qiluvchi omillar sifatida namoyon bo'ladi.

Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligini tahlil qilishda shaxsning psixologik xususiyatlarini ham hisobga olish zarur. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 17-moddasiga ko'ra," ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgan paytda o'z harakatlarining ahamiyatini anglay olmagan yoki ularni boshqara olmagan shaxs aqli rasolikka ega emas"- deb topiladi va jinoiy javobgarlikka tortilmaydi. Ushbu norma yoshlar bilan ishlash jarayonida ruhiy holat, tarbiya muhiti va psixologik rivojlanish darajasini baholash muhimligini ko'rsatadi. Demak, yoshlar jinoyatchiligini oldini olish faqat jazolash bilan emas, balki psixologik va ijtimoiy yondashuv bilan ham amalga oshirilishi lozim. Shu o'rinda xorijiy tajribaga murojaat qilish maqsadga muvofiqdir. Masalan, Germaniya tajribasida voyaga yetmaganlarga nisbatan jazodan ko'ra tarbiyaviy va reabilitatsion choralar ustuvor hisoblanadi. Mazkur mamlakatda yosh huquqbuzarlarga nisbatan maxsus sudlar faoliyat yuritadi hamda ularga psixolog, ijtimoiy pedagog va vasiylik organlari kompleks yondashadi. Shuningdek, dual ta'lim tizimi orqali yoshlarning bandligi ta'minlanadi va ularni kasb-hunarga yo'naltirishga katta e'tibor qaratiladi. Jinoyat sodir etgan yoshlar reabilitatsiya dasturlariga jalb etilib, ularning jamiyatga qayta moslashuvi ta'minlanadi.Ushbu tajriba shuni ko'rsatadiki, yoshlar jinoyatchiligini kamaytirishda jazoni kuchaytirishdan ko'ra profilaktika, ijtimoiy moslashtirish va ma'naviy-tarbiyaviy mexanizmlar samaraliroq natija beradi.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin. Avvalo, mahallalarda "risk guruhi"ga kiruvchi uyushmagan yoshlar bilan individual ishlash tizimini kuchaytirish zarur. Ikkinchidan, yoshlar bandligini monitoring qilish va ularni kasb-hunarga yo'naltirish mexanizmlarini takomillashtirish lozim. Uchinchidan, huquqiy targ'ibotni interaktiv shakllarda, jumladan, trening va amaliy mashg'ulotlar orqali tashkil etish yoshlarning huquqiy ongini oshirishga xizmat qiladi. To'rtinchidan, ota-onalar va ta'lim muassasalari hamkorligini mustahkamlash orqali oilaviy nazoratni kuchaytirish maqsadga muvofiqdir. Shunday qilib, uyushmagan yoshlar jinoyatchiligi ijtimoiy, iqtisodiy va psixologik omillar bilan bog'liq murakkab jarayon bo'lib, uni kamaytirish uchun kompleks, tizimli va hamkorlikka asoslangan yondashuv zarur hisoblanadi.Demak, uyushmagan yoshlar bilan ishlashda nafaqat huquqiy nazorat, balki ularning bandligi, ta'limi va bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etadi.

Xulosa: qilib aytish joizki, yangilanayotgan O'zbekiston sharoitida uyushmagan yoshlar orasida sodir etilayotgan huquqbuzarlik va jinoyatlar masalasi jamiyat barqarorligi hamda yosh avlodning sog'lom rivojlanishi nuqtai nazaridan dolzarb ijtimoiy-huquqiy muammolardan biri hisoblanadi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, uyushmagan yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etilmaganligi, huquqiy ong va huquqiy madaniyat darajasining yetarli emasligi, ijtimoiy nazoratning sustligi hamda ayrim hollarda oilaviy muhitdagi muammolar ushbu toifadagi yoshlar tomonidan turli xil huquqbuzarliklarning sodir etilishiga sabab bo'lmoqda. Shu bois mazkur muammoni hal etishda davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari, ta'lim muassasalari hamda mahalla tizimi o'rtasidagi hamkorlikni yanada kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, uyushmagan yoshlar bilan ishlash jarayonida profilaktik chora-tadbirlarni tizimli ravishda tashkil etish, ularning bo'sh vaqtini samarali tashkil etishga qaratilgan sport, madaniy va ma'rifiy dasturlarni kengaytirish zarur. Bu esa yoshlarning ijtimoiy faolligini

oshirish, ularni turli salbiy illatlar va huquqbuzarliklardan himoya qilishga xizmat qiladi. Ayniqsa, yoshlar o‘rtasida huquqiy targ‘ibot ishlarini kuchaytirish, ularni amaldagi qonunchilik normalari bilan yaqindan tanishtirish ham jinoyatchilik profilaktikasida muhim omil hisoblanadi. Mazkur muammoni samarali hal etishda quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin;

Uyushmagan yoshlarni aniqlash va ular bilan individual ishlash tizimini yanada takomillashtirish;

mahalla, ichki ishlar organlari va ta’lim muassasalari o’rtasidagi hamkorlik mexanizmini kuchaytirish;

yoshlarning bo’sh vaqtini mazmunli tashkil etish uchun sport to’garaklari, kasb-hunar kurslari va ijodiy markazlar faoliyatini kengaytirish;

yoshlar o’rtasida huquqiy ong va huquqiy madaniyatni oshirishga qaratilgan targ’ibot-tashviqot ishlarini muntazam olib boorish;

ijtimoiy himoyaga muhtoj hamda nazoratsiz qolgan yoshlarni qo’llab-quvvatlash bo’yicha davlat va jamoat tashkilotlari faoliyatini yanada rivojlantirish. Umuman olganda, uyushmagan yoshlar o‘rtasida jinoyatchilikning oldini olish faqatgina huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyati bilan cheklanib qolmasdan, balki butun jamiyatning birgalikdagi harakatini talab etadi. Shu orqali yoshlarning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, ularni jamiyatning faol va mas’uliyatli a’zolari sifatida shakllantirish hamda mamlakatimizda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (Yangi tahrir, 2023-yil).

2. “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonun (O‘RQ-406-son).

3. “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonun (O‘RQ-371-son).

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni (Yoshlar jinoyatchiligini kamaytirish bo‘yicha maqsadli ko‘rsatkichlar berilgan PF-158).

5. Z.S. Zaripov. “Kriminologiya” (Darslik). Yoshlar o‘rtasidagi jinoyatchilikning sabablari va shart-sharoitlarini tahlil qilishda asosiy manba (2006-yil).

6. Q.R. Abdurasulova. “Jinoyat sabablari va shaxsning shakllanishi” (2006-yil).

7. I. Ismoilov. “Huquqbuzarliklar profilaktikasi” (O‘quv qo‘llanma 2017-yil).